



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI



"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich

Sana: 10-02-2025 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

230193 - SONLI

Obyekt nomi: "Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Minor MFY, Kichik halqa avtomobil yo'li ko'chasi, 28-uy manzilida O'z yer uchastkasida "Yerto'la qavatlarida avtoturargoh, pastki qavatlarida savdo-maishiy hizmat ko'rsatish majmuasi va biznes markazi bo'lgan ko'p kvartirali turar joy" binosini qurish. (Blok-C)" ishchi loyihasi	
Buyurtmachi:	APPENZELL GROUP MCHJ
Bosh loyihachi:	"LYUKS LOYIHA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	buyurtmachi tomonidan aniqlanadi
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	046609

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar Yunusobod tumani qurilish bo'limi tomonidan 2024-yil 24-sentabrda berilgan 139019042-sonli ruxsatnomasi.

1.2. Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2024-yil 02-oktabrda berilgan 1726-1726266-200897-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Belgilangan tartibda kelishilgan va 2024-yil buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.

1.4. «GEO-MIR» MChJ tomonidan 2024-yilda bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.

1.5. "Toshkent shahar suv tarmoqlari" MChJ tomonidan 2024-yil 3-oktabrda berilgan 270/4-4546-sonli texnik sharti.

1.6. "Hududgaz Poytaxt" GTF tomonidan 2024-yil 20-noyabrda berilgan 100784-sonli texnik sharti.

1.7. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tomonidan 2024-yil 16-iyulda berilgan 05-1408-sonli texnik sharti.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra ishchi loyihaning elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha hujjatlari.

- tushuntirish xati
- bosh reja (GP);
- arxitektura yechimlari (AR);
- konstruktiv yechimlar (KJ);
- elektr ta'minoti (EO);
- ichimlik suvi va oqava suv tarmog'i (VK);
- isitish va shamollatish tizimi (OV);
- xavfsizlik tizimi (OS);
- aloqa tizimlari (PS, SS, VN);
- gazlashtirish (GS);
- yong'inni avtomatik o'chirish tizimi (APT);
- konstruktiv hisobot;
- bino energetik pasporti;
- bino teplotexnik hisobi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino						
Turi	Nomi	Qavati	Qurilish maydoni	Umumiy maydoni	Xajmi	Xonadonlar soni
Ko'p xonadonli turar joy binosi	БЛОК-С	13	854	11295	41704	83
Jami:			854	11295	41704	83

3.1. Qurilish maydonchasining ma'lumotlari.

Normativ shamol bosimi - $W_o = 0,38$ kPa.

Normativ qor qatlami vazni - $S_n = 0,50$ kPa.

Hudud zilzilabardoshlik - 9 ball.

Tuproq - lyossimon qumloq.

Tuproq cho'kuvchanligi bo'yicha toifasi - I (birinchi).

Yer osti suvlari yer sathidan 4.5-4.9 m chuqurlikda joylashgan.

Tuproq-gruntlarning muzlash chuqurligi - 0,70 m.

3.2. Bosh reja.

Qurilish maydoni Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Minor MFY, Kichik halqa avtomobil yo'li ko'chasi, 28-uy manzilida joylashgan bo'lib, quyidagilar bilan chegaralangan:

- shimoldan - hususiy hovlilar;
- janubdan - MKAD
- g'arbdan - hususiy hovlilar;
- sharqdan - "METROPOL" TJM.

Bosh reja texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Umumiy maydoni - 1152.0 m^2

Qurilish maydoni - 854.1 m^2

Qoplamalar maydoni - 209.9 m^2 ;

Ko'kalamzor maydoni - 56.0 m^2

3.3. Arxitektura - rejalashtirish yechimlari.

Loyihaning ushbu bosqichida 2-sonli turar-joy binosi qurilishi ko'zda tutilgan.

Blok-S – 2 qavat yerto‘lali, 13 qavatli, to‘rtburchak shaklda bo‘lib, umumiy o‘lchamlari 32.0x19.8m. Yerto‘la qismida o‘lchamlari 25.7x32.0m. Yerto‘la qavat balandliklari 3.3m va 3.75m, birinchi qavat baladligi 5.5m, 2-chi qavat balandligi 4.5m, yuqori qavatlar balandligi 3.0m (poldan shiftgacha).

Binoning turar-joy qismining zinapoyalariga kirish hovli va ko‘cha tarafdin ko‘zda tutilgan.

Bino qavatlarida quyidagi xonalar joylashgan:

- yerto‘la pastki qavatida – zinapoya maydoni, lift maydoni, tambur, yo‘lak, avtoturargoh.
- yerto‘la yuqori qavatida - zinapoya maydoni, lift maydoni, tambur, yo‘lak, avtoturargoh, tijorat maydonlari.
- 1-2-3- qavatda – tijorat maydonlari, zinapoya maydoni, lift maydoni, yo‘lak va h.k.
- yuqori qavatlarda - xonadonlar joylashgan.

Binoda jami 83 ta xonadon ko‘zda tutilgan.

Binoning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Qurilish maydoni	-	854.1 m ²
Umumiy maydoni	-	11295.0 m ²
Qurilish hajmi	-	41704.1 m ³ .

Ichki pardoqlash:

Devorlar va pardevorlar – tekislangan suvoq, suv emulsiyasi bilan bo‘yash, nam xonalarda keramik plitalar bilan qoplangan.

Eshiklar – metal, MDF.

Vitrajlar – PVX profillar.

Oynalar – PVX profillar.

Shiftlar – gipsokarton, suv emulsiyasi bilan bo‘yalgan.

Pollar – beton, tarket va keramik plitalardan iborat.

Tashqi pardoqlash:

Devorlar – dekorativ “travertin” suvoq, keramogranit plita bilan qoplash.

Poypesh – itallogranit plita bilan qoplangan.

3.4. Konstruktiv yechimlari.

Binolarning konstruktiv yechimi – kattqlik diafragmali monolit temirbeton karkas.

Poydevori – qalinlikdagi 1500 mm bo‘lgan monolit temirbeton plita.

Yerto‘la tashqi devorlari – qalinligi 400mm bo‘lgan monolit temirbeton.

Qattqlik diafragmasi - qalinligi 300mm va 400mm bo‘lgan monolit temirbeton.

Ustunlar – kesimi 400x1000mm; 400x600mm; 700x700mm; 600x600mm; 500x500mm; 400x400mm bo‘lgan monolit temirbeton.

To‘sinlar – kesimi 400x450mm bo‘lgan monolit temirbeton.

Yuqori qavatlar tashqi devorlari - qalinligi 200mm bo‘lgan gazoblok.

Ichki devorlar – qalinligi 100mm bo‘lgan gazoblokdin iborat.

Orayopmasi - qalinligi 160mm va 200mm bo‘lgan monolit temirbeton.

Lift shaxtasi - qalinligi 200mm bo‘lgan monolit temirbeton.

Zinapoya – monolit temirbeton.

Tom issiqlik qoplamasi – 150mm qalinlikdagi keramzit.

Tom qismi – tekis va metall konstruksiyalar bo‘ylab yumshoq cherepitsa.

3.5. Yong‘in xavfsizligi.

Yong‘inga qarshiligi – II toifa.

Funksional yong‘in xavf turi – F1.3.

Konstruktiv yong'in xavf turi – S0.

3.6. Energiya samaradorlik.

Ishchi loyihada ShNK 1.03.01-16 yo'riqnomaning 5-chi ilovasiga asosan energiya tejamkorlik ishlari ko'rsatilgan.

Devorlar tashqi tomondan 60mm qalinlikdagi jun-mineral qoplama bilan qoplangan.

Bundan tashqari, bino tom qismida har birining quvvati 535 Vt bo'lgan umumiy 64 dona quyosh panellar o'rnatish ko'zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, elektr ta'minoti, aloqa va signalizatsiya, suv ta'minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik va yong'in signalizatsiyasi va boshqa tizimlar (Arxitektura rejalashtirish topshirig'i va loyihalashtirish topshirig'iga asosan).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi (2024-yil 26-noyabrdagi 159319192-sonli xulosa).

- O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi, Toshkent shahar filiali (2024-yil 20-noyabrdagi 01-02/14-2862-sonli ekologik ekspertiza xulosasi).

- O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi M.T. O'rozboev nomidagi mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti (29.12.2024-yildagi 1580-3-sonli xati va 2-sonli ilmiy xulosasi).

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, konstruktiv yechimlari izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.3. Buyurtmachiga loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.4. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishinni ta'minlaydi.

6.6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-bandiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 ga asosan «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. "Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Minor MFY, Kichik halqa avtomobil yo'li ko'chasi, 28-uy manzilida O'z yer uchastkasida "Yerto'la qavatlarida avtoturargoh, pastki qavatlarida savdo-maishiy hizmat ko'rsatish majmuasi va biznes markazi bo'lgan ko'p

kvartirali turar joy” binosini qurish. (Blok-C)” ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko’rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Avazov Xashimjon To’rabayevich.

Ishtirokchi ekspertlar: Yunusov Anvar Baxtiyarovich, Tursunov Rovshan Xasildjanovich